

YoShLAR YeTAKChISI TASHABBUSI BILAN



YoShLAR YeTAKChISI TASHABBUSI BILAN

Ayni kunda hududlardagi yoshlar yetakchilari tashabbusi bilan yoshlarni bilim olish va o'qishga kengroq jalb etish maqsadida turli tadbir va tanlovlar o'tkazilyapti. Tul mahalla fuqarolar yig'inidagi "Yoshlar mehnat guzari" da mahallaning yoshlar yetakchisi Bahromali Haydarov tashabbusi bilan mahalla yoshlari o'rtasida "Zakovat" intellektual musobaqasi tashkil etildi.

Mazkur bilimlar bellashuvida ikki jamoa - "Yoshlar" va "Lochinlar" jamoalari a'zolari qatnashib, ishtirokchi yoshlar g'oliblik uchun kurash olib borishdi. Musobaqa natijalariga ko'ra, g'oliblikni qo'lga kiritgan "Yoshlar" jamosi a'zolariga tashkilotchilarning faxriy yorliqlari va esdalik sovg'alari taqdim etildi. Yoshlar yetakchisining so'zlariga ko'ra, bunday ma'naviy tadbirlar mahallada muntazam o'tkaziladi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-03-19 17:09:12